
Yigirma nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Joriy haftadagi shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi shahar bo'limi mudiri Tavakkaljon Rahimov, hokim o'rinbosarlari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi.

"Shodiyona" mahalla fuqarolar yig'inidagi "Monomarkaz"da o'tkazilgan qabulda fuqarolar tomonidan bildirilgan 50 ga yaqin murojaatlar mas'ullar ishtirokida o'rganildi. Yigirma nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga topshiriqlar berildi.

Qabul so'ngida murojaatlarni hal etilishi darajasi tanqidiy tahlil qilindi. Fuqarolarning murojaatlarini ijobiy hal etish yuzasidan shahar hokimligi tomonidan amaliy yordam ko'rsatish belgilandi.

2023-12-04 14:30:52